



ABU NASR FAROBIYNING FALSAFIY VA LINGVISTIK QARASHLARI

Adiba Otaqulova Olimovna

(Samarqand davlat universiteti)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378111>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 11-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 17-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

falsafa, din, jamiyat, poetika,
lingvistika, fan, she'riyat

ABSTRACT

Ushbu maqolada sharq falsafasi, xususan, islom falsafasining mohiyati ochib berilgan. Abu Nasr Farobiyning falsafiy va lingvistik qarashlari tahlil qilinib, bugungi kundagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Insoniyat, dunyoga kelibdiki, qanday jamiyatda yashamasin ehtiyojlar va zaruriyatlarni his etib yashaydi. Tabiiy ehtiyoj, moddiy ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj va boshqa ehtiyojlar. Shunday ehtiyojlardan yana biri fanga bo'lgan ehtiyojdir. Buyuk olim Abu Rayxon Beruniy "Geodeziya" asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lish va tarmoqlanishi haqida fikr yuritib, har bir fan inson hayotining zaruriy ehtiyoji ekanligini ta'kidlaydi. Falsafa – fanlarning otasi, dunyoqarash shakllaridan biri va inson faoliyati sifatida qadimdan shakllanib, taraqqiy etgan inson va jamiyat uyg'unligidagi fandır.

Ma'lumki, XIX asrga kelib, sharq va g'arb falsafasi tushunchasi alohida rivojlanish yo'lini tanladi. Bu davrgacha bo'lgan falsafa nazariyasi negizida uyg'unlik va taqozolik yaqqol sezilib turgan. Xususan, sharq falsafasiga Arastu ta'limoti, Aflotun qarashlari ta'siri sezilgan bo'lsa, X asrdan boshlab arab tilidagi sharq falsafasining takomili butun dunyo ilm- faniga ta'sir eta boshladi. "Sharq peripatetizmi" yoyilishi butun yevropa falsafiy tafakkuriga ta'sir ko'rsatdi. Al-Farobiy, Ibn Sino kabi olimlar ilmiy- ijodiy faoliyatida Arastu nazariy qarashlari nechog'lik sezilsa, g'arb falsafasida sharqona xarakter, islomiy falsafa ufura boshladi. Yunon tarixiy manbalari guvohlik berishicha, Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy mushohadalari va ilmiy ta'limotlari pifagor va grek maktablarining shakllanishiga turtki bo'lgan. Biroq bu ikki olam falsafasi alohida, o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan. XX asrning birinchi yarmiga kelib, sharq va g'arb falsafiy o'ziga xosligi yaqqol sezila boshladi. "XX asr ikkinchi yarmidagi falsafiy tizimlarning tarqoqligini va bir- biriga qarama- qarshiligi ikki asr chegarasidagi jamiyatning umumiy tanazzuli va o'tish davrining qarama- qarshiligini ifodalay ediki, bu davrda insoniyat ilgarigi hayot tarzi shakllarini keskin tanqid qilib, ijtimoiy hayotning yangi shakllarini qidirishga boshlagan edi".¹

Tarixdan ma'lumki, grek falsafasi paydo bo'lgan davrda din, falsafa va ilm- fan bir- biridan alohidalangan edi. Sharqda bu holat, bu jarayon sodir etilmagan, qolaversa, sharqda

¹ Кодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва урта шарқнинг фалсафий тафаккури. Уқув кулланма. Т.2009. 4-6

mantiqiy tafakkur tarzi inkor etilmagan. "Sharq falsafasiga tarqoq, mavhum mistik- ilohiy obrazlar dunyosi va diniy- e'tiqodiy qarashlar majmuasi sifatida qaramay, balki yaxlit tizimga ega, o'z taraqqiyoti bosqichlarida birin- ketin barcha sharq xalqlari tafakkuriga singib brogan, ammo turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lgan ilm sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi".² Islom dinining turli mintaqalarda tarqalishi, ayniqsa, tamaddun darajasiga xos o'lkalarda yoyilishi islom dini va mafkurasining falsafiy ildizlari uchun zamin hozirladi. Shubhasiz, mistik- falsafiy qarashlar va islom mafkurasining to'qnashuvi jamiyat uchun ham davriy yangilik edi. Ajam xalqlarining islomni qabul qilishlari islom tafakkuriga o'tish bosqichi bo'ldi. Bu esa yangi tushuncha, g'oya va islomiy falsafani shakllantirdi. Bu jarayon dastavval, islom falsafasining ilk bosqichi: kalom ilmi bilan bog'liq edi. Bu ilm bahs vositasi ham bo'lib, unda falsafa ham shariy hujjatlar: Qur'oni karim, hadisi shariflarga bog'liq tarzda bo'lgan.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy dunyoqarashining tubdan o'zgarishi va sharq falsafasining takomillashuvida Sirdaro bo'yida, Farob qishlog'ida tug'ilgan buyuk qomusiy olim Abu Nasr ibn Muhammad Farobiyning o'rni beqiyosdir. Olim umri davomida bir yuz oltmishdan ziyod asarlar yaratgan, ammo ba'zilar bizgacha yetib kelmagan. Farobiyning o'rta asrlar ilm- madaniyatiga qo'shgan hissasi falakiyot, riyoziyot, musiqa, tilshunoslik, adabiyot, tabobat, mantiq va falsafa fanlari doirasidagi ilmiy merosi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda olimning asarlarini ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Tarjima qilish va sharhlashga doir asarlari (Aristotelning "Kategoriyalar", "Ikkinchi analitika", "Topika", "Poetika", "Ritorika", "Sofistika" asarlariga sharhlarni aytish mumkin);
2. O'rta asr ilm- u fanining tabiiy- ilmiy, ijtimoiy- siyosiy va falsafiy masalalariga tegishli risolalari ("Ihso al- ulum", "Hikmat asoslari", "Aristotel "mantiq"ining talqinlari", "Katta musiqa kitobi", "As siyosa al- madaniya", "Mantiqqa kirish", "Fozil odamlar shahri", "Vakuum haqida").

Al- Farobiy falsafasi negizini dunyoning tuzilishi haqidagi panteistik ta'limot tashkil etadi, ya'ni butun mavjudot- borliq emanatsiya asosida yagona boshlang'ichdan bosqichma- bosqich, birin- ketin vujudga kelgan. Farobiy fanda katta o'zgarishga qo'l urdi: u din va falsafani haqiqatga yetishishning ikki mustaqil usuli deb hisobladi. Farobiy "falsafa" atamasini fan va sohalarda qo'llaydi va islom falsafasini ilmiy yoritib bergani bois "ikkinchi muallim" sifatida ulug'landi. Farobiy diniy haqiqatlar falsafiy misol- dalillardan iborat deb bildi. Uningcha, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihati, ya'ni xil yo'ldir. Falsafa daliliy hukmlarga murojaat etsa, din o'sha hukmlarning xitobiy ko'rinishidir. Farobiy fikricha, falsafa dindan avvalroq zamon hodisalari bois vujudga kelgan. Farobiy ideal jamiyat haqida so'z yuritar ekan inson va jamiyat istilohlariga to'xtaladi. U aqlli inson haqida yozadi: "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, (ular) yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deyidilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn- idrokka ega bo'lganlarni aqlli, deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim". Jamiyatning kichik bo'lagi – inson haqida fikr yuritib, "Ilm va san'atning fazilatleri" risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, limning brogan sari ortib, chuqurlashib borishini ta'kidlaydi. Al- Farobiy inson aqli haqida gapirar ekan, "Aql ma'nolari haqida" risolasida aql faqatgina insonga xos bo'lgan ruhiy quvvat ekanligini va hayvondan shu ruhiy kuch sabab farqliligini keltiradi.

² Sh. Sirojiddinov. Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi. T: Iqtisod- moliya. 2008. 5- bet.

Abu Nasr Farobiyning ijtimoiy- siyosiy va falsafiy qarashlari “Fozil shahar aholisining qarashlari”, “Baxt- saodatga erishuv yo’llari haqida risola” asarlarida o’z ifodasini topgan. Farobiy o’z davrida birinchilardan bo’lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari borasida mukammal nazariya ishlab chiqdi. Uning ideal jamiyat nazariyasi ijtimoiylashish, xalqlar xamkorligi va yagona insonlar jamiyatini tuzishga bag’ishlangan edi. Inson kamolotining muhim sababi ijtimoiylashishdir. Farobiy inson qadr- qimmatini yuksak jamiyatni orzu qilgan. “Fozil shahar aholisining qarashlari” risolasida: “Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko’p narsaga muhtoj bo’ladi, u bir o’zi bunday narsalarni qo’lga kiritmaydi, ularga ega bo’lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj ttug’iladi”. Farobiyning ideal jamiyat nazariyasi insonlarni hamjihatlikka, xalqlarni do’stlik- bag’rikenglikka, tinchlikka chaqiradi. Olim kamsitivchi jamiyatni keskin qoralaydi. Inson qadrini ulug’lashga da’vat etadi. “Baxt- saodatga erishuv yo’llari haqida risola” asarida yozadi: “Davlatning vazifasi insonlarni baxt- saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo’lga kiritiladi”. Farobiyning ideal jamiyat xususidagi fikrlari barcha davr uchun birday ahamiyatlidir. Uning fikricha, davlatni har tomonlama yetuk kishi boshqarishi lozim. Bunday yetuk xislatlarga ega boshqaruvchi esa xalq tomonidan saylanishini aytib o’tadi. Abu Nasr Farobiy fikricha, fozil jamiyat, fozil davlat shunday bo’ladiki, bu jamiyatning har bir a’zosi kasb – hunarli va ilm- salohiyatli bo’ladi. Eng muhimi shuki, bu jamiyatda odamlar chin ma’nosi bilan ozod hamda erkin bo’ladi. Bunday jamiyatni boshqaruvchi kishida quyidagi oltita xislat mavjud bo’ladi: 1. Adolatli, 2. Dono, 3. Qonunlarga rioya qiluvchi, 4. Yangi qonunlar ishlab chiqaruvchi, 5. Kelgusini oldindan ko’ra biluvchi, 6. G’amxo’r va mehribon. Abu Nasr Farobiyning yetuk tilshunos olim sifatidagi qarashlari “Fanlar tasnifi haqidagi so’z” asarida namoyon bo’ladi. Ushbu asarda tilshunoslikning so’z va so’z turkumlari masalasi ilmiy asosda yoritib berilgan.

Tarixdan ma’lumki, misrlik olim Abdurahmon Badaviy 1953- yili Aristotelning “Poetika” asarini arab tilida nashr ettirgan va bu nashr “Poetika” ga munosabat tarzida yozilgan Ibn Sino, Farobiyning asarlarini ham o’z ichiga olgan. Farobiyning “Shoirlar san’ati qonunlari haqida” ilmiy asari she’riyat lingvopoetikasiga doir dastlabki bilimlarni beradi. Bu asar “Poetika” ta’sirida bitilgan bo’lsa-da, muallifning individual ilmiy qarashlari asosida yaratilgan bilan ahamiyatlidir. She’riy janrlar- nav va turlar, she’riy o’xshatishlar va shoirlar borasidagi fikrlari bu mo’jaz asarning yuksak filologik qimmatini ko’rsatadi. Farobiy she’riyatning ma’lum qoida va mezonlar asosida tahlil qilinishi kerakligiga e’tibor qaratgan. She’rning ma’nosiga qarab ilmiy tomondan taqsim qilinishda har bir xalq va ramzlarni biluvchi, she’rni sharhlovchi, ma’nolarini nazorat qiluvchi, shularga qarab xulosa chiqaruvchilarga havola qilinishini alohida ta’kidlagan. Farobiy sharq va yunon she’riyatini yaxshi bilgan, qiyosiy o’rgangan. Filologik tahlillaridan ayonki, Farobiy nafaqat mantiqshunos, balki yetuk tilshunoslik olim ham bo’lgan. Abu Nasr Farobiy, Abdulqodir Jurjoniy, Kays Roziy kabi ijodkorlarning badiiy ijodga doir asarlaridan ko’rish mumkinki, so’z ilmining sharq adabiy falsafasida shakllanishi IX- XIII asrlarga borib taqaladi.

Xulosa

Abu Nasr Farobiy Markaziy Osiyodan chiqqan yetuk qomusiy olimdir. U sharq falsafasi, islom tafakkuri, tilshunoslik kabi o’ndan ortiq qator sohalar doirasida ilmiy asarlar yaratgan. Olimning fozil jamoa, fozil davlat, fozil siyosat va fozil rahbar xususidagi nazariyalari va komil inson borasidagi ta’limoti bir- biri bilan chambarchas bog’langan. Zero Farobiy fikricha, haqiqiy komil inson chin jamoada, ya’ni fozil jamiyatda shakllanadi. Komil inson haqidagi qarashlar

uning poetikaga doir fikrlarida ham seziladi. "Farobiy o'z falsafiy qarashlarida insoniylikni ulug'laydi. U bu haqida shunday yozadi: "Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido- insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lganligi uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim".³ Bu esa poetikaning insonshunoslik, falsafaning esa poetika bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Abu Nasr Farobiy falsafasida shariat va din muhim bo'lib, ular barcha faoliyatlarning mohiyati va yo'nalishini ko'rsatib turuvchi mayoqdir. Olim ta'limotida har ikkisining maqsadi va yo'nalishini belgilab olishga chaqiradi. Farobiy islom olamida falsafa asoschisi sifatida ulug' nomga sazovor bo'ldi, qolaversa, filologiya ilmining falsafiy negizlarini ham ko'rsata oldi. Farobiy tilshunoslik, she'riyat masalalariga doir yetuk asarlar qoldirgan bo'lib, bugungi kunda filologiya ilmida o'zining benazir o'rniga ega. Hozirgi davrda, kompyuter texnologiyalari rivojlanib, axborot kommunikatsiya sohasi taraqqiy etgan zamonda Abu Nasr Farobiyning asarlariga bo'lgan ehtiyoj ilm- fan va jamiyat rivoji uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотел. Поэтика.- Тошкент:Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 149 б.
2. Кодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва урта шарқнинг фалсафий тафаккури. Уқув қулланма. Т.2009. 4-б
3. Sh. Sirojiddinov. Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi. T: Iqtisod- moliya. 2008.
4. Ramziddin Isoqjonov. Buyuk yurt allomalari. T: O'zbekiston. 2020. 86- bet.
5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004.

INNOVATIVE
ACADEMY

³ Ramziddin Isoqjonov. Buyuk yurt allomalari. T: O'zbekiston. 2020. 86- bet.